



Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti

Raximova Lolaxon Avazovna

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakillantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ushbu sohaning rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyukturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat faoliyatini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi. Masalan, sohani rivojlantirish asosida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, xizmatchilarni ishbilarmonlik faolligini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarni operativ tarzda tashkil etilishi va boshqalarni yaxshilanishiga sabab bo'ladiki, bularning barchasi oxir-oqibatda mamlakat aholisi turmush darajasi va sifatini oshirishga olib keladi.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, Bozor, aholi bandligi, Prognoz

Xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni tarkibiy qismlarining murakkabligi va xilma xilligi, ularning bajarilish tadbirlarini mustaqil tanlash, hisoblash, loyihalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o'zgarishlar kiritadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida xodimlar mehnat faoliyatining eng samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida xizmat ko'rsatish jarayonlarini o'rganish, takomillashtirish va har tomonlama asoslangan xizmat ko'rsatish normalarini ishlab chiqish va ish vaqtdan samarali foydalanish asosida mehnat unumdorligini o'stirish imkoniyatini aniqlash zarur. Biroq mehnat unumdorligini oshirishni sekinlashtiruvchi va to'xtatuvchi omillar bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi sharoitida ham mavjud. Chunki xizmat ko'rsatayotgan korxonalar xarajatlarini to'xtovsiz kamaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini ko'paytirish bilan emas, balki o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar yoki ko'rsatayotgan xizmatlar kamchiligidan, tanqisligidan foydalanib, ularning baholarini oshirish evaziga rejalashtirilgan miqdorda daromad olishga erishmoqdalar. Bunday hol, o'z navbatida nafaqat boshqarib bo'lmaydigan inflyasiya jarayonining yanada rivojlanishini kuchaytiradi, balki har tomonlama ilmiy asoslangan xizmat ko'rsatish normalarini keng joriy etib, xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish va boshqarish xarajatlarini qisqartirishga umuman imkon bermaydi.

Hozirgi sharoitda ishchilar faoliyatining mehnatdagi buyumlashgan elementlari bilan o'zaro aloqasini o'rnatibgina qolmay, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lgan «inson-texnika» o'rtasida mehnat munosabatlarini shakllantirish, jonli mehnat samaradorligini oshirish kabi muammolarni yechish zarur bo'lmoqda²⁸.

Bizning fikrimizcha, xorijiy mamlakatlar xizmat ko'rsatish sohasining tashkiliy tuzilishi xizmatlar bozori tashkiliy tuzilmasining tadqiqoti orqali respublikamizda xizmatlar bozorining tashkiliy tuzilmasini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- amal qilish mexanizmlari bo'yicha (vositachilik moliyaviy, axborot-texnologik, xuquqiy, marketing);
- mulk shakli bo'yicha (xususiy, kooperativ(jamoa), davlat, ijtimoiy, xorijiy);
- ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamı bo'yicha (xalqaro, milliy, hududlararo, hududiy, mahalliy);
- ko'rsatiladigan xizmatlar turlari va yo'nalishlari bo'yicha: ishbilarmonlik xizmatlari (moliyaviy, sug'urta, kredit xizmatlari), taqsimot xizmatlari (savdo, umumiy ovqatlanish), ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy madaniyat, huquqiy xizmatlar).

Ko'pchilik xorijiy iqtisodchi olimlar xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishini uning tarmoq belgilari va rivojlanish nuqtai nazaridan tasniflashni taklif etishadilar. Bizning fikrimizcha, ushbu sohani tashkiliy-iqtisodiy nuqtai nazardan tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Bunday holda quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish zarur:

- axborot-tijorat infratuzilmasi (marketing markazlari, reklama agentliklari, axborotlarni to'plash va qayta ishlash markazlari va h.z.);
- iqtisodiy-huquqiy infratuzilma (sudlar, huquqiy maslahat markazlari, advokatlik va notarial idoralar va h.z.);
- moliyaviy-kredit infratuzilmasi (tijorat banklari, kredit, sug'urta va kafolat tashkilotlari);
- savdo, vositachilik infratuzilmasi (yarmarkalar, birja, savdo uylari, tijorat markazlari va h.z.).

Xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini ta'minlashda yuqorida ta'kidlangan tasniflar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida xizmatlar salmog'ini oshirishga qaratilgan islohotlar ushbu xizmat sohalarini yanada rivojlantirishni talab etadi. Masalan, xizmatlar turlari sifatida savdo uylari, tashkilotlari, yarmarkalar, oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlarini realizatsiyasiga hamda ularni ishlab chiqaruvchilarini samarali faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, xizmatlar maxsus tovar sifatida uni ko'rsatuvchilarga o'ziga xos talablarni bajarishni talab etadi. Ushbu fikrni tasdig'i sifatida yarmarkalarning o'rni va rolini misol qilish mumkin. Keyingi vaqtlarda xizmat sohasining savdo-vositachilik tarkibiy tuzilmasi sifatida ularning roli jahon tajribasida birmuncha pasayib bormoqda. Yetakchi o'ringa xizmatlar

²⁸ Q.X.Abduraximov. Mexnat iqtisodiyoti (darslik). – Ye. «Mehnat», 2009. – B 91 – 92 .





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bozori tarkibida ushbu bozorning holati haqida ishlab chiqaruvchilar va xizmat iste'molchilari haqidagi axborotlarni to'plash va qayta ishlash zarur.

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining faoliyati tahlili shundan dalolat bermoqdaki, pullik xizmatlar ko'rsatish tashkiliy jihatdan yetarli darajada rivojlanmagan, xususan, moliya-kredit xizmatlari infratuzilmasi samarali shakllanmagan. Samarqandda bank tizimidan tashqari moliya-kredit tashkilotlari, kredit, kafolat, sug'urta, assosiasiyalar yetarli darajada shakllanmagan hamda ularning tashkiliy mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Vaholanki, bizning fikrimizcha tadbirkorlar, ishbilarmonlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, alohida shaxslar faoliyati uchun ushbu xizmat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yil boshida ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, bu yil yana 2,4 mln kishi mehnat bozoriga kiradi. 2024-yilda 5 mln aholi ish bilan ta'minlanishi kutilmoqda." deyiladi Prezidentning 2024 yil 8-yanvar kuni aholi bandligini oshirish va tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirishga oid yig'ilishida.

Shuni inobatga olib, 2024-yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish hisobiga 5 mln kishini ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Jumladan, xizmatlar sohasida 2,5 mln, qishloq xo'jaligida 2,1 mln, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati borligi belgilangan.

2023 yilda Xotin-qizlarga ajratilgan kreditlar to'g'risida ma'lumot

T/r	Hududlar/Banklar nomi	"Har bir oila-tadbirkor" dasturi		
		Loyiha soni	Summa	Ish o'rni
	Jami:	19 927	446,7	19 940
1	Buxoro shahar	684	19,2	684
2	Kogon shahar	450	12,1	450
3	Buxoro tumani	941	22,9	947
4	Vobkent tumani	1 589	31,3	1 589
5	Jondor tumani	2 429	56,0	2 429
6	Kogon tumani	771	18,1	771
7	Qorako'l tumani	1 904	42,5	1 903
8	Qorovulbozor	311	6,3	311
9	Olot tumani	1 669	31,8	1 669
10	Peshko' tumani	1 994	47,1	1 994
11	Romitan tumani	2 120	56,3	2 128
12	Shofirkon tumani	1 753	40,7	1 753
13	G'ijduvon tumani	3 312	62,6	3 312
Banklar kesimida				





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Jami:		19 927	446,7	19 940
1	Xalq banki	8 009	180,6	8 019
2	Agrobank	7 769	169,3	7 772
3	Mikrokreditbank	4 149	96,8	4 149

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, birgina Buxoro viloyatida "Har bir oila-tadbirkor" dasturi doirasida 19927 ta loyiha tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan va buning natijasida iqtisodiy sektorda 19940 ta yangi ish joylari tashkil etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Prognozlar shuni ko‘rsatadiki keyingi yillarda faoliyat shu tarzda olib borilsa, ya’ni kreditlashtizimi rivojlantirilishi natijasida 21396 ta loyihi kreditlashtirilsa iqtisodiy sektorda 22412 ta yangi ish o‘rinlari tashkil qilish mumkin.

Xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida aholini band qilish

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI (2023 yil)

№	Hududlar nomi	Savdo va servis yo‘nalishi (doimiy)			shundan:			
					Yangi xizmat ko‘rsatish obyektlari va mavjudlari kengaytirish hisobiga		O‘zini o‘zi band qilish hisobiga	
		Yillik reja	amalda	%	Yillik reja	amalda	Yillik reja	amalda
	Buxoro viloyati	23 170	24 494	106	8 170	8 662	15 000	15 832
1	Buxoro shahri	3 245	3 396	105	1 145	1 284	2 100	2 112
2	Kogon shahri	463	482	104	163	167	300	315
3	Buxoro tumani	2 039	2 130	104	719	730	1 320	1 400
4	Vobkent tumani	1 668	1 696	102	588	599	1 080	1 097
5	Jondor tumani	1 854	2 008	108	654	658	1 200	1 350
6	Kogon tumani	1 251	1 313	105	441	473	810	840
7	Olot tumani	1 390	1 410	101	490	496	900	914
8	Peshko‘ tumani	1 483	1 622	109	523	625	960	997





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

9	Romitan tumani	2 410	2 526	1 05	85 0	860	1 560	1 666
10	Shofirkon tumani	1 946	2 046	1 05	68 6	697	1 260	1 349
11	Qorako'l tumani	2 085	2 170	1 04	73 5	770	1 350	1 400
12	Qorovulbozor tumani	278	492	1 77	98	203	18 0	289
13	G'ijduvon tumani	3 058	3 203	1 05	1 078	1 100	1 980	2 103

Viloyat miqyosida Savdo va servis yo'nalishida 2023 yil rejasiga ko'ra 23170 ta aholi ish bilan band qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa bu ko'rsatkich amalda 24494 tani (106%) tashkil etgan va rejadagiga nisbatan 0.6% ga ortig'i bilan bajarilgan. Bu yerda Yangi xizmat ko'rsatish obyektlari va mavjudlari kengaytirish hisobiga 8662 aholi band qilingan bu esa savdo va servis yo'nalishida band qilingan aholining 35,4 %ni tashkil etadi.

Xulosa

Xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni tarkibiy qismlarining murakkabligi va xilma xilligi, ularning bajarilish tadbirlarini mustaqil tanlash, hisoblash, loyihalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o'zgarishlar kiritadi.

Xorijiy mamlakatlar xizmat ko'rsatish sohasining tashkiliy tuzilishi xizmatlar bozori tashkiliy tuzilmasining tadqiqoti orqali respublikamizda xizmatlar bozorining tashkiliy tuzilmasini amal qilish mexanizmlari bo'yicha, mulk shakli bo'yicha, ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamiga bo'yicha, ko'rsatiladigan xizmatlar turlari va yo'nalishlari bo'yicha tasniflashimiz mumkin.

Xorijiy iqtisodchi olimlar xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilishini uning tarmoq belgilari va rivojlanish nuqtai nazaridan tasniflashni taklif etishadilar. Bizning fikrimizcha, ushbu sohani tashkiliy-iqtisodiy nuqtai nazardan axborot-tijorat infratuzilmasi (marketing markazlari, reklama agentliklari, axborotlarni to'plash va qayta ishlash markazlari va h.z.), iqtisodiy-huquqiy infratuzilma (sudlar, huquqiy maslahat markazlari, advokatlik va notarial idoralar va h.z.), moliyaviy-kredit infratuzilmasi (tijorat banklari, kredit, sug'urta va kafolat tashkilotlari), savdo, vositachilik infratuzilmasi (yarmarkalar, birja, savdo uylari, tijorat markazlari va h.z.). asosida tasniflash maqsadga muvofiqdir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimovich, T. M. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Miasto Przyszłości*, 55, 1458-1463.
2. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.
3. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.
4. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko'rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. *Miasto Przyszłości*, 54, 987-995.
5. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 270-273.
6. Toshov, M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIVAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIVA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Modern Science and Research*, 3(6).
7. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
8. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
9. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
10. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
11. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 353-358.
12. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TAMINLASHNING SAMARALI USULLARI.
13. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 84-87.
14. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 415-420.
15. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasialari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
16. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.
17. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

18. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.
19. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
20. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
21. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
22. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
23. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
24. Bustonovna, J. Z. (2024). DEVELOPMENT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS PROSPECTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 285-291.
25. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
26. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
27. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
28. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
29. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
30. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
31. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
32. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

33. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 191-195.
36. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 715-720.
37. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
38. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
39. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O'ZINI OZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 59-64.
40. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 72-77.
41. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGINI KLASSTERLASHNING XORIJIY TAJRIBASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 65-71.
42. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
43. Sadilloeyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
44. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.
45. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " *Экономика и туризм* " международный научно-инновационной журнал, 6(14).
46. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

47. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PRPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
48. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O‘Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
49. Aziz, I. (2023). O‘zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag‘batlantirish yo‘llari. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
50. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
51. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O‘Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
52. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA.
53. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisAtion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATcHES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.
54. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.
55. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.

